XI. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Navoiy viloyati va hududlarning tashkil topgan yillari hamda ularning markazlari

	Tashkil topgan yil	*Viloyat va tuman, shaharlar markazlari*	*Yer maydoni, ming. kv. km.*
Navoiy viloyati	**27.01.1992-y.**	**Navoiy sh.**	**111,1**
Navoiy sh.	1958-y.	Navoiy sh.	0,06
Zarafshon sh.	1972-y.	Zarafshon sh.	0,02
G‘ozg‘on sh.	03.05.2019-y.	G‘ozg‘on sh.	0,59
Karmana t.	09.09.1926-y.	Karmana sh-cha.	0,94
Konimex t.	29.12.1965-y.	Konimex sh-cha.	9,25
Qiziltepa t.	07.12.1970-y.	Qiziltepa sh.	2,19
Navbahor t.	12.03.1980-y.	Beshrabot sh-cha.	1,57
Nurota t.	29.09.1926-y.	Nurota sh.	5,94
Tomdi t.	03.07.1927-y.	Tomdibuloq sh-cha.	42,49
Uchquduq t.	25.03.1982-y.	Uchquduq sh.	46,63
Xatirchi t.	03.12.1964-y.	Yangirabot sh.	1,42

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yil 1- iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1 065,3 ming kishini tashkil etdi va yil boshidan 9 865 kishiga yoki 0,9 foizga ko‘paydi.

Doimiy aholi soni[1)]

(2023- yil 1- iyul holatiga birlikda)

	Jami aholi	***shu jumladan:***		***1 kv. km ga to‘g‘ri keladiganlar soni***
		shahar aholisi	***qishloq aholisi***	
Jami	**1 065 322**	**522 512**	**542 810**	**9,6**
Navoiy sh.	158 495	158 495	x	2 641,6
Zarafshon sh.	87 328	87 328	x	4 366,4
G‘ozg‘on sh.	9 183	9 183	x	15,6
Karmana t.	137 246	44 967	92 279	146,0
Konimex t.	37 475	17 130	20 345	4,1
Qiziltepa t.	160 388	50 023	110 365	73,2
Navbahor t.	119 859	17 179	102 680	76,3
Nurota t.	88 772	50 465	38 307	14,9
Tomdi t.	15 735	5 166	10 569	0,4
Uchquduq t.	39 366	34 413	4 953	0,8
Xatirchi t.	211 475	48 163	163 312	148,9



Aholining tabiiy harakati
2023- yil yanvar- iyun

	kishi			*har 1000 aholiga nisbatan* (promille)	
	2022-y.	*2023-y.*[1)]	*o'sish, kamayish*	*2022-y.*	*2023-y.*[1)]
Tug'ilganlar	12 151	12 813	662	23,6	24,4
O'lganlar	1 909	1 971	62	3,7	3,7
Tabiiy o'sish	10 242	10 842	600	19,9	20,7
Nikohlar	3 041	2 768	-273	5,9	5,3
Ajralishlar	715	755	40	1,4	1,4

[1)] dastlabki ma'lumot

Har 1 000 aholiga nisbatan tabiiy harakati (promille)



Tug‘ilish darajasi. 2023- yilning yanvar- iyun oylarida tug‘ilganlar soni 12 813 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (12 151 kishi) nisbatan 662 taga ko‘paygan. Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 24,4 promilleni tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (23,6 promille) nisbatan 0,8 promillega ko‘payganini ko‘rsatmoqda.

Tug‘ilish darajasi viloyatning G‘ozg‘on shahrida (12,8 dan 22,7 promillega), Nurota tumani (21,4 dan 25,8 promillega), Konimex tumanida (15,5 dan 19,8 promillega), Zarafshon shahrida (22,8 dan 25,2 promillega), Navbahor tumanida (21,1 dan 22,1 promillega), Uchquduq tumanida (22,7 dan 23,4 promillega), Karmana tumanida (24,3 dan 24,9 promillega) va Qiziltepa tumanida (20,3 dan 20,6 promillega) oshgan bo‘lib, Xatirchi tumanida (23,5 dan 23,0 promillega), Navoiy shahrida (33,5 dan 32,3 promillega) va Tomdi tumanida (18,1 dan 15,2 promillega) kamayish kuzatildi.

O‘lim darajasi. 2023- yilning yanvar- iyun oylarida o‘lganlar soni 1 917 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (1 909 kishi) nisbatan 62 taga ko‘paydi. O‘lim koeffitsiyenti mos ravishda 3,7 promilleni tashkil qildi (2022- yil yanvar- iyun oylarida 3,7 promillega) nisbatan o‘zgarmaganini ko‘rsatmoqda.

O‘lganlar soni G‘ozg‘on shahrida (1,1 dan 3,8 promillega), Nurota tumanida (4,0 dan 4,9 promillega), Konimex tumanida (4,1 dan 4,8 promillega) va Navoiy shahrida (4,6 dan 5,0 promillega) oshgan bo‘lib, Xatirchi tumanida (3,2 dan 3,2 promillega) o‘zgarish kuzatilmadi. Tomdi tumanida (5,3 dan 4,0 promillega), Uchquduq tumanida (3,4 dan 2,4 promillega), Navbahor tumanida (3,7 dan 3,4 promillega), Qiziltepa tumani (3,5 dan 3,3 promillega), Zarafshon shahrida (2,8 dan 2,6 promillega) va Karmana tumanida (4,1 dan 4,0 promillega) kamayish kuzatildi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(Yanvar- iyun oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		*Nikohdan ajralishlar*	
	2022	*2023*	*2022*	*2023*
Jami	**3 041**	**2 768**	**715**	**755**
Navoiy sh.	544	579	160	182
Zarafshon sh.	262	199	67	57
G‘ozg‘on sh.	16	13	2	0
Karmana t.	418	389	133	122
Konimex t.	114	76	24	31
Qiziltepa t.	452	417	64	86
Navbahor t.	307	268	68	75
Nurota t.	219	178	37	33
Tomdi t.	29	18	7	0
Uchquduq t.	105	88	32	32
Xatirchi t.	575	543	121	137

Viloyat bo‘yicha tuzilgan nikohlarda hududlarning ulushi, % da



Viloyat bo‘yicha nikohdan ajralishlarda hududlarning ulushi, % da



Nikohlar va ajralishlar. 2023- yilning yanvar- iyun oylarida FHDYo organlarida 2 768 ta nikohlar va 755 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 5,3 promille nikoh (2022-yilning tegishli davrida 5,9 promille) va 1,4 promille ajralishlar (2022-yilning tegishli davrida 1,4 promille) ga to‘g‘ri keldi.

Tuzilgan nikohlar viloyatning Navoiy shahrida (7,2 dan 7,4 promillega) oshgani kuzatildi.

Nikohdan ajralganlar viloyatning Konimex tumanida (1,3 dan 1,7 promillega), Qiziltepa tumanida (0,8 dan 1,1 promillega), Navoiy shahrida (2,1 dan 2,3 promillega), Navbahor tumanida (1,2 dan 1,3 promillega), Xatirchi tumanida (1,2 dan 1,3 promillega) oshgani kuzatildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari
(Yanvar- iyun oylarida 1 000 aholi soniga nisbatan)

promille

	Tug‘ilganlar		O‘lganlar		Aholining tabiiy o‘sishi	
	2022-y.	2023-y.[1)]	2022-y.	2023-y.[1)]	2022-y.	2023-y.[1)]
Jami	**23,6**	**24,4**	**3,7**	**3,7**	**19,9**	**20,7**
Navoiy sh.	33,5	32,3	4,6	5,0	28,9	27,3
Zarafshon sh.	22,8	25,2	2,8	2,6	20,0	22,6
G‘ozg‘on sh.	12,8	22,7	1,1	3,8	11,7	18,9
Karmana t.	24,3	24,9	4,1	4,0	20,2	20,9
Konimex t.	15,5	19,8	4,1	4,8	11,4	15,0

[1)] dastlabki ma’lumot

	Tug‘ilganlar		O‘lganlar		Aholining tabiiy o‘sishi	
	2022-y.	2023-y.[1)]	2022-y.	2023-y.[1)]	2022-y.	2023-y.[1)]
Qiziltepa t.	20,3	20,6	3,5	3,3	16,8	17,3
Navbahor t.	21,1	22,1	3,7	3,4	17,4	18,7
Nurota t.	21,4	25,8	4,0	4,9	17,4	20,9
Tomdi t.	18,1	15,2	5,3	4,0	12,8	11,2
Uchquduq t.	22,7	23,4	3,4	2,4	19,3	21,0
Xatirchi t.	23,5	23,0	3,2	3,2	20,3	19,8

Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(Yanvar- iyun oylarida, kishi)

	Ko‘chib kelganlar		*Ko‘chib ketganlar*		*Migratsiya saldosi*	
	2022	*2023*	*2022*	*2023*	*2022*	*2023 [1)]*
Jami	**4 561**	**4 712**	**4 597**	**5 689**	**-36**	**-977**
Navoiy sh.	1 934	1 961	1 469	1 580	465	381
Zarafshon sh.	32	682	475	832	-443	-150
G‘ozg‘on sh.	7	7	5	7	2	-
Karmana t.	1 047	870	604	728	443	142
Konimex t.	219	107	136	286	83	-179
Qiziltepa t.	210	176	290	357	-80	-181
Navbahor t.	268	184	356	321	-88	-137
Nurota t.	139	151	361	292	-222	-141
Tomdi t.	159	84	32	250	127	-166
Uchquduq t.	255	244	268	425	-13	-181
Xatirchi t.	291	246	601	611	-310	-365

Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(Yanvar- iyun oylarida, kishi)



Migratsiya. Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar- iyun oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 4 712 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 5 689 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i manfiy 977 kishiga (2022- yilning shu davrida manfiy -36 kishi) teng bo‘ldi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig‘i, Xatirchi tumanida (manfiy 365 kishiga), Uchquduq tumanida (manfiy 181 kishiga), Qiziltepa tumanida (manfiy 181 kishiga), Konimex tumanida (manfiy 179 kishiga), Tomdi tumanida (manfiy 166 kishiga), Zarafshon shahrida (manfiy 150 kishiga), Nurota tumanida (manfiy 141 kishiga) va Navbahor tumanida (manfiy 137 kishiga) kamayish kuzatildi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig‘i Navoiy shahrida (381 kishiga), Karmana tumanida (142 kishiga) oshgani kuzatildi. G‘ozg‘on shahrida esa o‘zgarish kuzatilmadi.

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Ish haqi. 2023- yil yanvar- iyun oylarida Navoiy viloyati shahar, tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda. Viloyatda o‘rtacha oylik ish haqi 5 687,4 ming so‘mni tashkil etgan holda, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 8 618,3 ming so‘mni (viloyatning o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 151,5 %), Zarafshon shahrida 8 152,6 ming so‘mni (143,3 %), Konimex tumanida 6 279,7 ming so‘mni (110,4 %), Navoiy shahrida 6 077,1 ming so‘mni (106,9 %), tashkil etgan bo‘lsa, Karmana tumanida 4190,4 ming so‘mni (73,7 %), Tomdi tumanida 3358,9 ming so‘mni (59,1 %), G‘ozg‘on shahrida 2 820,8 ming so‘mni (49,6 %), Navbahor tumanida 2 792,9 ming so‘mni (49,1 %) Xatirchi tumanida 2 641,2 ming so‘mni (46,4 %), Qiziltepa tumanida 2 550,9 ming so‘mni (44,9 %) va Nurota tumanida 2 521,6 ming so‘mni (44,3 %), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi* (ming so‘mda)



Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023- yil yanvar- iyunga nisbatan, % da)

ming so‘mda

	2022- yil	*2023*- yil*	*O‘sish sur‘ati, % da*
Jami	**4 840,2**	**5 687,4**	**117,5**
Navoiy sh.	5050,1	6 077,1	120,3
Zarafshon sh.	7 171,4	8 152,6	113,7
G‘ozg‘on sh.	2 316,5	2 820,8	121,8
Karmana t.	3 878,2	4 190,4	108,0
Konimex t.	4 788,6	6 279,7	131,1
Qiziltepa t.	2 114,4	2 550,9	120,6
Navbahor t.	2 340,6	2 792,9	119,3
Nurota t.	2 259,5	2 521,6	111,6
Tomdi t.	2 738,6	3 358,9	122,7
Uchquduq t.	7 905,3	8 618,3	109,0
Xatirchi t.	2 195,8	2 641,2	120,3

2023- yil yanvar- iyun oylarida Navoiy viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2022- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 117,5 foizni tashkil etib, jumladan Konimex tumanida 131,1 foiz, Tomdi tumanida 122,7 foiz, G‘ozg‘on shahrida 121,8 foiz, Qiziltepa tumanida 120,6 foiz, Navoiy shahrida 120,3 foiz, Xatirchi tumanida 120,3 foiz, Navbahor tumanida 119,3 foiz, Zarafshon shahrida 113,7 foiz, Nurota tumanida 111,6 foiz, Uchquduq tumanida 109,0 foiz va Karmana tumanida 108,0 foizga o‘sgani kuzatildi.

**)Daslabki ma‘lumot, kichik tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligi korxonalarisiz.*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

ming so‘mda

	Yanvar- iyun		*Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da*	
	2022- yil	*2023- yil*	*2022- yil*	*2023- yil*
Jami viloyat bo‘yicha:	**4 840,2**	**5 687,4**	**x**	**x**
shu jumladan:				
Sanoat	7 108,5	8 175,3	146,9	143,7
Qurilish	4 518,7	6 607,9	93,4	116,2
Savdo	2 448,2	2 534,4	50,6	44,6
Tashish va saqlash	3 227,2	4 174,7	66,7	73,4
Axborot va aloqa	3 748,7	6 529,7	77,4	114,8
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	8 267,0	11 119,8	170,8	195,5
Ta‘lim	2 553,2	2 991,2	52,8	52,6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2 412,6	2 817,4	49,8	49,5
Boshqa faoliyat turlari	3 939,8	4 831,6	81,4	85,0

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati (195,5 %), sanoatda (143,7 %), qurilish (116,2 %), axborot va aloqada (114,8 %), boshqa faoliyat turlari (85,0 %), tashish va saqlash (73,4 %), ta‘lim (52,6 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (49,5 %) va savdo (44,6 %) sohalari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Sanoat sohasida 27 ta korxonada 76 462 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 43,1 %) xodim ishlagan bo‘lib, Sanoat sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 175,3 ming so‘mni;

Ta‘lim sohasida 681 ta korxonada 45 642 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,7 %) xodim ishlagan bo‘lib, Ta‘lim sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 991,2 ming so‘mni;

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 57 ta korxonada 20 754 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,7 %) xodim ishlagan bo‘lib, Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 817,4 ming so‘mni;

Savdo sohasida 18 ta korxonada 1 431 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan 0,8 %), xodim ishlagan bo‘lib, Savdo sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 534,4 ming so‘mni;

Qurilish sohasida 8 ta korxonada 3 994 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,3 %) xodim ishlagan bo‘lib, Qurilish sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 607,9 ming so‘mni;

Axbarot va aloqa sohasida 6 ta korxonada 665 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodim ishlagan bo‘lib, Axbarot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 529,7 ming so‘mni;

Tashish va saqlash sohasida 10 ta korxonada 1 230 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodim ishlagan bo‘lib, Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 174,7 ming so‘mni;

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida 39 ta korxonada 2 002 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 %) xodim ishlagan bo‘lib, Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 11 119,8 ming so‘mni;

Boshqa faoliyat turlari sohasida 330 ta korxonada 25 102 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,2 %) xodim ishlagan bo‘lib, boshqa faoliyat turlari sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 831,6 ming so‘mni tashkil etdi.